TARIXIY SYUJETLARDA MILLIY O'ZLIK VA MAFKURAVIY ZIDDIYATLAR ANALIZI ("ULUG'BEK XAZINASI" VA "KO'HNA DUNYO"ROMANLARI MISOLIDA)

Akbarova Elinur Akbar qizi
Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universiteti Ona tili va adabiyot ta'limi fakulteti O'zbek tili va adabiyoti yo'nalishi 4-bosqich talabasi

ANNOTATSIYA

Mazkur maqolada Odil Yoqubovning "Ulug'bek xazinasi" va "Ko'hna dunyo" romanlarida tarixiy syujet, milliy o'zlik va mafkuraviy ziddiyatlar badiiy talqin nuqtayi nazaridan tahlil qilinadi. Asarlarda tarixiy shaxslar taqdiri, ilm-fan va hokimiyat munosabatlari, ma'naviy qadriyatlar, haqiqat va manfaat o'rtasidagi qarama-qarshiliklar o'rganiladi. "Ulug'bek xazinasi" romanida Mirzo Ulug'bekning ilmiy merosi va fojiaviy taqdiri orqali ma'rifat bilan siyosiy manfaatlar o'rtasidagi ziddiyat ochib berilsa, "Ko'hna dunyo"romanida Abu Rayhon Beruniy va Abu Ali Ibn Sino obrazlari vositasida olimning jamiyatdagi o'rni, tafakkur erkinligi va insoniy mas'uliyat masalalari yoritiladi. Ikki roman qiyosiy tahlil qilinib, tarixiy syujetlarning milliy xotira va milliy o'zlikni anglashdagi badiiy-estetik ahamiyati asoslanadi. Maqolaning ilmiy yangiligi ushbu romanlarda milliy o'zlikning faqat tarixiy meros bilan faxrlanish emas, balki ilm, haqiqat, axloqiy mustaqillik va ma'naviy javobgarlikni himoya qilish jarayoni sifatida namoyon bo'lishini qiyosiy tahlil qilishdan iborat.

Kalit so'zlar: Odil Yoqubov, tarixiy syujet, milliy o'zlik, mafkuraviy ziddiyat, tarixiy xotira, ilm-fan, Mirzo Ulug'bek, Abu Rayhon Beruniy, Abu Ali ibn Sino, badiiy talqin

Tarixiy roman millatning o'tmishini badiiy aks ettirish bilan birga, uning ma'naviy tajribasi, tarixiy xotirasi va o'zligini anglash jarayonini yorituvchi muhim adabiy janrlardan biridir. Bunday asarlarda tarixiy voqealar shunchaki o'tgan zamon manzarasi sifatida tasvirlanmaydi. Ular orqali inson va jamiyat, shaxs va hokimiyat, ilm va jaholat, adolat va manfaat o'rtasidagi murakkab munosabatlar badiiy tahlil qilinadi. Shu sababli tarixiy romanlarni o'rganishda voqealar ketma-ketligini aniqlashning o'zi yetarli emas. Tarixiy syujetning qanday qurilgani, qahramonlarning qanday mafkuraviy qarashlar bilan to'qnashgani hamda bu to'qnashuvlarning milliy o'zlikni anglashga qanday ta'sir ko'rsatganini aniqlash zarur. O'zbek tarixiy romanchiligida Odil Yoqubovning "Ulug'bek xazinasi" va "Ko'hna dunyo" asarlari alohida ahamiyatga ega. Adib ushbu romanlarida tarixiy shaxslarning hayotini tasvirlash bilan cheklanmay, ular yashagan davrning ijtimoiy-siyosiy muhitini, ma'naviy qarama-qarshiliklarini va inson taqdiriga ta'sir ko'rsatuvchi kuchlarni ham badiiy tahlil qilganligini guvohi bo'lamiz. Adib ijodiga oid ma'lumotlarda "Ulug'bek xazinasi" va "Ko'hna dunyo" tarixiy mavzudagi muhim romanlar sifatida qayd etiladi[1].

Mazkur romanlarni birgalikda o'rganish tarixiy syujet va milliy o'zlik masalalarining turli badiiy ko'rinishlarini aniqlash imkonini beradi. "Ulug'bek xazinasi"da ilmiy tafakkur, hukmdorlik mas'uliyati va siyosiy manfaatlar o'rtasidagi ziddiyat markaziy o'rin egallasa, "Ko'hna dunyo"da ilm ahlining murakkab tarixiy sharoitda haqiqatga munosabati, ma'naviy mustaqilligi va insoniy qadr-qimmati muhim badiiy masalaga aylanadi. Ushbu tadqiqotning maqsadi – ikki roman misolida tarixiy syujetlarninhg milliy o'zlik

[1] Odil Yoqubov ijodining tarixiy romanlar bilan bog'liq jihatlarini asoslash uchun: Odil Yoqubov (1926-2009). Ziyo electron adabiy portali. https://www.ziyouz.com/portal-haqida/xarita/uzbek-nasri

© Ushbu material Creative Commons Attribution 4.0 International (CC BY 4.0) litsenziyasi asosida tarqatiladi.

va mafkuraviy ziddiyatlarni ochib berishdagi vazifasini aniqlash, qahramonlar taqdiri hamda badiiy konfliktlarning o'zaro bog'liqligini qiyosiy tahlil qilishning o'zi kifoya. Aynan ushbu asarlardagi milliy o'zlik masalasi yagona, ammo ikki yo'nalishda namoyon bo'ladigan hodisa sifatida talqin etiladi: birinchi yo'nalishda milliy meros va ilmiy tafakkurni siyosiy zo'ravonlikdan asrash muammosi, ikkinchi yo'nalishda esa olimning haqiqat, vijdon va ma'naviy mustaqillik oldidagi mas'uliyati tahlil qilinadi. Shu asosda tarixiy xotira faqat o'tmishni eslash emas, balki bugungi ma'naviy mezonlarni anglash vositasi ekanligi ko'rsatib beriladi.

Tadqiqotda tarixiy-adabiy, qiyosiy-adabiy, qiyosiy-tipologik va badiiy tahlil usullaridan foydalaniladi. Tarixiy voqelik bilan yozuvchining badiiy talqini farqlanadi, obrazlarning xatti-harakati, syujet rivoji va konfliktlarning g'oyaviy vazifasi o'zaro bog'liqlikda ko'rib chiqiladi. Badiiy asarda tarixiy shaxs tasvirlanganida uning obrazi tarixiy ma'lumotlarni aynan takrorlash bilangina cheklanmasligi, balki muallifning estetik maqsadi va inson haqidagi qarashlari bilan ham belgilanishi hisobga olinadi. Badiiy asarni tahlil qilishda uning shakli, mazmuni, obrazlari va g'oyaviy yo'nalishini yaxlit o'rganish adabiyotshunoslikning muhim tamoyillaridan biridir[2]. Tarixiy syujet o'tmishda yuz bergan voqealarni tasvirlashbilangina belgilanmaydi. Uning asosiy xususiyati tarixiy muhit, shaxs taqdiri va davrning ijtimoiy ziddiyatlari o'rtasidagi aloqani badiiy shaklda namoyon qilishidadir. Tarixiy syujetda qahramonning shaxsiy hayoti ko'pincha kengroq ijtimoiy muammolar bilan tutashadi. Natijada bir insonning taqdiri orqali butun bir davrning ma'naviy qiyofasi ochiladi. Menimcha, yozuvchi bundan ham muhimroq masalani ko'taradi: millatning haqiqiy boyligi buyuk insonlarning mavjudligi bilangina emas, balki ularning ilmiy merosini qadrlash, himoya qilish va davom ettirish qobiliyati bilan ham belgilanadi.

"Ulug'bek xazinasi" romanida bu masala Mirzo Ulug'bekning hayoti va fajiaviy taqdiri orqali ochiladi. "Ko'hna dunyo"da esa Beruniy va Ibn Sino obrazlari yordamida ilmiy tafakkur, haqiqatga intilish hamda olimning jamiyat oldidagi mas'uliyati yoritiladi. Ikki asarda tarixiy davr va voqealar turlicha bo'lsa-da, ularni birlashtiruvchi muhim jihat mavjud: ilm va ma'rifatning qadri ko'pincha ularni anglay oladigan va himoya qila oladigan insonlarning mavjudligiga bog'liq. Shu o'rinda tarixiy shaxs va badiiy obraz tushunchalarini farqlash lozim. Tarixiy shaxs real hayotda yashagan inson bo'lsa, badiiy obraz yozuvchining tarixiy ma'lumotlarni tanlashi, voqealarni muayyan tartibda qurishi, qahramonlarning ichki kechinmalarini tasvirlashi va ular orqali g'oyaviy mazmun yaratishi natijasida shakllanadi. Odil Yoqubov romanlarida tarixiy shaxslar hayotining barcha tafsilotlarini sanab o'tishdan ko'ra, ularning taqdiri orqali davrning muhim ziddiyatlarini ko'rsatish ustuvor ahamiyat kasb etadi. Adabiyotshunoslikka oid o'quv qo'llanmada ham yozuvchining "Ulug'bek xazinasi" va "Ko'hna dunyo" romanlari tarixiy faktlar asosida yaratilgani, biroq tarixiy shaxslarning batafsil tarjimayi holini bayon qilishdan ko'ra, ular orqali ijtimoiy-axloqiy muammolar yoritilgani qayd etiladi[3]. Demak, mazkur romanlarda tarixiy syujet milliy o'zlikni anglashga xizmat qiluvchi badiiy vosita sifatida namoyon bo'ladi. O'quvchi tarixiy qahramonlarning yutuqlarini bilish bilan cheklanmay, ularning hayotida yuz bergan ziddiyatlarning sabablarini ham tushunishga harakat qiladi. Aynan shu jihat tarixiy xotirani oddiy eslashdan farqlab, uni tanqidiy fikrlash va ma'naviy xulosa chiqarish jarayoniga aylantiradi.

"Ulug'bek xazinasi" romanining eng keskin va fojiaviy yo'nalishlaridan biri Mirzo Ulug'bek bilan uning o'g'li Abdulatif o'rtasidagi ziddiyatdir. Bu munosabatni faqat oilaviy kelishmovchilik sifatida tushunish asarning mazmunini toraytiradi. Chunki ota va o'g'il o'rtasidagi qarama-qarshilik roman

[2] Qurbonov D. Adabiyotshunoslikka kirish. – Toshkent: Fan, 2007.
[3] Karimov, Obidjon. Yangi o'zbek adabiyoti tarixi: savol-javoblar. – Namangan: Namangan, 2016. – 60-bet. Elektron nusxa: https://api.ziyonet.uz/uploads/books/765358/5afd2ba9e18c2.pdf.

© Ushbu material Creative Commons Attribution 4.0 International (CC BY 4.0) litsenziyasi asosida tarqatiladi.

doirasida hokimiyat uchun kurash, siyosiy manfaat va ma'naviy qadriyatlar to'qnashuvi bilan chambarchas bog'liq. Mirzo Ulug'bekning fojiaviy holati shundaki, u nafaqat hukmdor sifatida siyosiy raqiblar bilan, balki o'z farzandi bilan ham ziddiyatga kirishadi. Abdulatifning taxt uchun kurashi syujetga keskin olib kiradi. Ota va o'g'il o'rtasidagi qarama-qarshilikda hukmdorlik mavqeyi, shaxsiy manfaat va hokimiyatni qo'lga kiritish istagi oldingi o'ringa chiqadi. Shu bilan birga, Ulug'bek obrazi ilmga, tafakkurga va ma'rifatga intiluvchi shaxs sifatida ochiladi. Natijada o'quvchi ikki xil ustuvorlikka duch keladi: bir tomonda hokimiyatni egallash istagi, ikkinchi tomonda esa ilmiy faoliyat va ma'naviy merosning qadrini saqlash zarurati.

Mening tahlilimcha, romandagi ushbu ziddiyatning eng achinarli tomoni – hokimiyat uchun kurashning insoniy munosabatlarni yemirishi bilan cheklanmasdan, butun bir ma'naviy muhitga xavf tug'dirishidir. Ota va o'g'il o'rtasidagi ishonchning yo'qolishi, saroydagi manfaatparastlik va xiyonat ilmiy faoliyat uchun zarur bo'lgan osoyishtalikni ham izdan chiqaradi. Shu sababli Ulug'bekning fojiaviy taqdiri bir insonning mag'lubiyati sifatida emas, balki siyosiy manfaatlar ilmiy va ma'naviy qadriyatlardan ustun qo'yilgan vaziyatning oqibati sifatida ham talqin qilinishi mumkin. Bu yerda Abdulatif obraziga baho berishda ham bir jihatni hisobga olish zarur. Uni shunchaki salbiy qahramon deb atash roman konfliktining barcha qatlamlarini ochib bermaydi. Uning xatti-harakatlari syujetida hokimiyatga intilishning qanday qilib axloqiy chegaralardan chiqib ketishi mumkinligini ko'rsatadi. Boshqacha aytganda, yozuvchi o'quvchini faqat muayyan shaxsni qoralashga emas, balki hokimiyatga erishish maqsadi insoniy burch va mas'uliyatdan ustun qo'yilganda qanday fojiaviy natijalar kelib chiqishini anglashga ham undaydi.

Romandagi yana bir muhim jihat – saroydagi boshqa shaxslarning munosabati. Siyosiy kurash kuchaygan sari insonlarning haqiqiy ma'naviy qiyofasi ochila boradi: kimdir manfaatiga qarab yo'l tanlaydi, kimdir esa o'z e'tiqodi va sadoqatini saqlashga harakat qiladi. Shu tariqa tarixiy syujet qahramonlarni faqat voqealarga jalb etmaydi, balki ularning ichki dunyosini sinovdan o'tkazadi. Mirzo Ulug'bek va Abdulatif o'rtasidagi ziddiyat, saroydagi xiyonatlar hamda Ulug'bekning ilmiy merosini saqlashga qaratilgan harakatlar roman haqidagi ilmiy tadqiqotlarda ham alohida qayd etilgan. Xususan, Azmidin Nasirovning tadqiqotida Mirzo Ulug'bek va Abdulatif o'rtasidagi taxt kurashi, Ali Qushchining ustoziga sadoqati hamda asarlarni saqlab qolishga qaratilgan harakatlari badiiy talqinning muhim jihatlari sifatida ko'rsatiladi[4]. Shunday qilib, roman markazidagi ota va o'g'il ziddiyati bir vaqting o'zida oilaviy, siyosiy va ma'naviy mazmunga ega. Uning badiiy vazifasi tarixiy voqeani tasvirlash bilangina cheklanmay, insonning maqsadga erishish yo'lida qanday qadriyatlarni yo'qotishi mumkinligi haqidagi savolni ham o'rtaga qo'yishdan iborat.

Ushbu romanni chuqurroq anglashda Ali Qushchi obraziga alohida e'tibor berish lozim. Chunki u asarda Mirzo Ulug'bekning ilmiy merosi va ma'naviy an'anasi davomiyligini ifodalovchi muhim obrazlardan biri sifatida namoyon bo'ladi. Agar Ulug'bek taqdiri ilm-fan va hokimiyat o'rtasidagi ziddiyatning fojiaviy tomonini ochsa, Ali Qushchi obrazi shu fojiaga qarshi ma'naviy javobni – ustozga sadoqat va ilmiy merosni saqlashga intilishni ko'rsatadi. Roman voqealari rivojida Ali Qushchining ahamiyati shundaki, uning ustoziga munosabati vaziyat o'zgarishi bilan o'zgarib ketaydi. Mirzo Ulug'bekning siyosiy mavqeyi zaiflashgan, uning hayoti xavf ostida qolgan sharoitda Ali Qushchining sadoqati alohida ma'no kasb etadi mening fikrimcha. Bunday vaziyatda sadoqat shunchaki hurmat yoki shaxsiy yaqinlik emas, u xavf-xatar mavjud bo'lsa ham, o'z e'tiqodi va ma'naviy burchidan voz

[4] Nasirov, Azmidin. " Odil Yoqubovning 'Ulug'bek xazinasi' romanida badiiy obraz yaratish". Uluslalarasi Türk Lehçe Araştirmalari Dergesi , 2020, 4- jild, 2-son. Elektron manba: https://dergipark.org.tr//tr/pub/turklad/article/642443.

© Ushbu material Creative Commons Attribution 4.0 International (CC BY 4.0) litsenziyasi asosida tarqatiladi.

kechmaslikni anglatadi. Mening nazarimda, Ali Qushchi obrazining eng muhim vazifasi Ulug'bekning ilmiy merosi bir insonning hayoti bilan tugab qolmasligini ko'rsatishdir. Ustozning ilmiy faoliyati, yaratgan asarlari va ilmiy qarashlari keyingi avlodga yetib borishi uchun ularni saqlashga tayyor insonlar kerak. Demak, ilmiy merosning davomiyligi faqat uni yaratgan olimning buyukligiga emas, balki bu merosni himoya qilishga mas'ul bo'lgan shogirdlar va izdoshlarga ham bog'liq. Bu nuqtayi nazardan qaraganda, romandagi "xazina" tushunchasi yanada keng ma'no kasb etadi. Xazina faqat topilishi yoki egallanishi kerak bo'lgan ma'naviy boylik emas. U, avvalo, saqlanishi, qadrlanishi va kelajak avlodlarga yetkazilishi lozim bo'lgan ma'naviy boylikdir. Moddiy boylikni egallash uchun kurashish mumkin, biroq ilmiy merosning haqiqiy qiymati uni o'zlashtirishda emas, balki undan bilim olish va uni davom ettirishda namoyon bo'ladi. Ali Qushchi obrazini Ulug'bek obrazi bilan qiyoslaganda ham muhim farq ko'zga tashlanadi. Ulug'bek ilmiy merosni yaratish va rivojlantirish bilan bog'liq markaziy shaxs bo'lsa, Ali Qushchi bu merosning saqlanib qolishi va davom etishi uchun kurashuvchi obraz sifatida talqin qilinadi. Shu tariqa yozuvchi ilm-fan taraqqiyotida ustoz va shogird o'rtasidagi ma'naviy aloqaning ahamiyatini ko'rsatadi. Bu munosabatning milliy o'zlik bilan bog;liqligi ham aniq. Milliy meros faqat tarix kitoblarida nomlari saqlangan buyuk shaxslardan iborat emas. Ularning bilimlari, qarashlari va ilmiy an'analarini o'rganish, ulardan foydalanish va keyingi avlodlarga yetkazish ham milliy o'zlikni anglashning tarkibiy qismidir. Shu ma'noda Ali Qushchi obrazi o'tmishdan qolgan merosga nisbatan mas'uliyatli munosabatning badiiy ifodasi sifatida ko'rinadi.

"Ko'hna dunyo" romanining g'oyaviy mazmunini ochishda Abu Rayhon Beruniy, Abu Ali ibn Sino va Mahmud G'aznaviy bilan bog'liq munosabatlarni tahlil qilish muhim. Asarda tarixiy shaxslarning hayoti faqat ilmiy yutuqlar bayoni sifatida tascirlanmaydi. Ularning yashagan davri, siyosiy muhit va hokimiyat bilan munosabatlari ham badiiy mazmunning tarkibiy qismiga aylanadi. Shu sababli roman tarixiy voqealarni tasvirlash bilan birga, olimning jamiyatdagi o'rni va tafakkur erkinligi masalasini ham ko'taradi. Beruniy va Ibn Sino obrazlarini birlashtiruvchi asosiy jihat – ilmiy izlanishga bo'lgan intilishdir. Ular dunyoni anglash, tabiat va inson haiqdagi bilimlarni chuqurlashtirishga harakat qiladigan allomalar sifatida gavdalanadi. Biroq ularning ilmiy faoliyati tarixiy sharoitdan tashqarida kechmaydi. Hokimiyat munosabatlari, siyosiy manfaatlar va davrning qarashlari olimlar hayotiga ta'sir ko'rsatadi. Natijada bilim olish va ilmiy izlanish masalasi insonning erkinligi, xavfsizligi va ma'naviy mustaqilligi bilan bog'lanadi.

Mahmud G'aznaviy bilan bog'liq munosabatlar bu jihatdan alohida tahlilga loyiq. Roman doirasida hukmdor va olim o'rtasidagi munosabatni faqat shaxsiy kelishmovchilik darajasida tushunish yetarli emas. Bu munosabat orqali bilimning hokimiyat uchun qanday ahamiyatga ega ekani, olimning mustaqil fikri siyosiy manfaatlar bilan qanday to'qnashishi mumkinligi haqida mushohada yuritish mumkin. Hukmdor ilmni o'z saltanatining nufuzi yoki manfaatlari bilan bog'liq holda ko'rishi mumkin; olim esa bilimning qiymatini haqiqatni anglash va insoniyat tafakkurini rivojlantirish bilan o'lchaydi. Ushbu ikki yondashuv o'rtasidagi tafovut mafkuraviy ziddiyatning muhim manbaalaridan biri sifatida namoyon bo'ladi. Roman syujeti rivoyatlarning qo'llanishi ham muhim badiiy vazifa bajaradi. Adabiyotshunoslikka oid tadqiqot materialida "Ko'hna dunyo" syujeti tarkibida qistirma hikoyalar, asosiy voqealarga singdirilgan rivoyatlar hamda afsona va mif motivlari mavjudligi qayd etiladi. Jumladan, dono to'ti va sabrsiz podshoh, olamning yaratilishi hamda Beruniy va Mahmud G'aznaviy bahsiga doir rivoyatlar asarning badiiy qatlamini tashkil etadi[5].

[5] Karimov Obidjon. Yangi o'zbek adabiyoti tarixi: savol-javoblar. – Namangan: Namangan, 2016. – 60-61-betlar, "Odil Yoqubovning 'Ko'hna dunyo' romani syujeti qanday tashkil topgan? Bo'limi. Elektron nusxa: https://api.ziyonet.uz/uploads/books.

© Ushbu material Creative Commons Attribution 4.0 International (CC BY 4.0) litsenziyasi asosida tarqatiladi.

Menimcha, ushbu rivoyatning ahamiyati shundaki, ular asosiy voqealar oqimini to'xtatib qo'yuvchi ortiqcha hikoyalar emas. Ular tarixiy qahramonlar yashayotgan muhitning ma'naviy qarashlarini, hokimiyat va donolik haqidagi tasavvurlarini ochishga xizmat qiladi. Rivoyat orqali aytilgan fikr bevosita muallif hukmi shaklida berilmaydi; o'quvchi voqea va ramziy mazmun o'rtasidagi bog'liqlikni o'zi anglashga undaladi. Shu yo'l bilan roman falsafiy mazmun kasb etadi. "Ko'hna dunyo"ning o'ziga xosligi ham tarixiy fakt va badiiy talqinning o'zaro munosabatida ko'rinadi. Tarixiy material asarga asos bo'ladi, biroq muallifning maqsadi tarixiy ma'lumotlarni hujjat shaklida takrorlashdan iborat emas. U tarixiy shaxslarning taqdiri orqali insoniyat tarixida qayta-qayta yuzaga keladigan savollarni qo'yadi: bilimning qadri nimada, hukmdor va olim munosabatlari qanday mezonlar asosida qurilishi kerak, inson murakkab sharoitda o'z e'tiqodini qanday saqlaydi? Shu sababli Beruniy va Ibn Sino obrazlari faqat o'tmishdagi buyuk allomalar timsoli sifatida emas, balki mustaqil fikrlash, bilimga sadoqat va ma'naviy mas'uliyatning badiiy ifodasi sifatida ham ahamiyatliligiga guvohi bo'lamiz.

"Ulug'bek xazinasi" va "Ko'hna dunyo" romanlarini qiyosiy o'rganish qiyosiy o'rganish orqali ilm-fan va hokimiyat o'rtasidagi ziddiyat har ikki asarda mavjudligini ko'rish mumkin. Biroq bu ziddiyatning badiiy namoyon bo'lishi bir xil emas. "Ulug'bek xazinasi"da konflikt Mirzo Ulug'bekning hukmdor va olim sifatidagi ikki maqomi, o'g'li Abdulatifning taxt uchun kurashi hamda ilmiy merosni saqlab qolish masalalari bilan keskinlashadi. "Ko'hna dunyo"da esa Beruniy va Ibn Sino obrazlari orqali olimning siyosiy muhitdagi o'rni, tafakkur erkinligi va ma'naviy mustaqilligi masalalari kengroq falsafiy yo'nalishda ochiladi. Birinchi romanda ilmiy merosni saqlash masalasi Ulug'bekning fojiaviy taqdiri va Ali Qushchining sadoqati bilan uzviy bog'langan. Ikkinchi romanda esa olimlarning murakkab tarixiy sharoitdagi hayoti orqali bilimning insoniy va axloqiy mazmuni ochiladi. Shunday qilib, bir asarda ilmiy merosning xavf ostida qolishi, ikkinchisida esa ilm egasining tafakkur erkinligi va ma'naviy pozitsiyasi alohida ahamiyat kasb etadi. Mening fikrimcha, ikki romanni birlashtiruvchi eng muhim g'oya – limning haqiqiy qadri uni hokimiyat yoki shaxsiy manfaat uchun ishlatishda emas, balki haqiqatni anglash va insoniyatning ma'naviy-intellektual rivojiga xizmat qildirishda namoyon bo'lishidir. Shu jihatdan yozuvchi tarixiy davrlarni tasvirlash orqali o'quvchiga faqat o'tmish haqida ma'lumot bermaydi, balki bugungi kun uchun ham dolzarb bo'lgan axloqiy savollarni qo'yadi. Ushbu talqinni bugungi O'zbekistonning ilm-fan va milliy merosga munosabati bilan bog'lash ham mumkin. Prezident Shavkat Mirziyoyev 2025-yil 29-avgustda O'zbekiston Respublikasi davlat mustaqilligining 34 yilligiga bag'ishlangan tantanali marosimdagi nutqida mamlakatning uch ming yillik tarixi va madaniyatini qayta idrok etish, Birinchi va Ikkinchi Renessans an'analarini rivojlantirish hamda Uchinchi Renessans sari qadam qo'yish masalalarini ta'kidlagan[6]. Ushbu fikrning romanlar tahliliga tatbiq etganda, tarixiy merosni o'rganish faqat o'tmish bilan faxrlanish vositasi emasligi ayon bo'ladi. Renessans an'analarini davom ettirish uchun o'tmish allomalarining nomlarini bilishning o'zi yetarli emas; ularning ilmga bo'lgan munosabati, izlanish usuli va tafakkur erkinligiga intilishini anglash ham zarur. Odil Yoqubov romanlaridagi ilmiy meros va olim mas'uliyati haqidagi badiiy mushohada aynan shu jihatdan bugungikun bilan ma'naviy bog'lanadi. Bundan tashqari, Prezidentning 2023-yil 31-avgustdagi mustaqillik bayramiga bag'ishlangan nutqida tarix, qadriyatlar, an'analar va milliy o'zlik xalqni birlashtiruvchi muhim ildizlar

[6] Mirziyoyev Shavkat Miromonovich. "O'zbekiston Respublikasi davlat mustaqilligining o'ttiz to'rt yilligiga bag'ishlangan tantanali marosimdagi nutq". – 29-avgust 2025-yil. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining rasmiy veb-sayti. https://www.president.uz

© Ushbu material Creative Commons Attribution 4.0 International (CC BY 4.0) litsenziyasi asosida tarqatiladi.

sifatida ta'riflangan[7]. Bu fikrni romanlar bilan bog'lashda bir muhim jihatni unutmasik kerak: milliy o'zlikni faqat tarixiy merosga egalik qilish hissi bilan emas, balki uni anglash va davom ettirish mas'uliyati bilan ham belgilanadi. "Ulug'bek xazinasi"dagi ilmiy meeosni saqlash uchun kurash va "Ko'hna dunyo"dagi allomalarning tafakkurga sadoqati shu mas'uliyatning badiiy ko'rinishlari sifatida talqin qilinishi mumkin. Shu tariqa ikki roman tarixiy syujetni milliy o'zlik, ilmiy tafakkur va ma'naviy mustaqillik masalalari bilan bog'laydi. Ulardagi mafkuraviy ziddiyatlar faqat o'tmishdagi siyosiy kurashlarning ifodasi emas, ular insoniyat uchun muhim bo'lgan haqiqat, adolat, bilim va mas'uliyat masalalarini ham ochib beradi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Qurbonov D. Adabiyotshunoslikka kirish. – Toshkent: Fan, 2007
2. Karimov O. Yangi o'zbek adabiyoti tarixi: savol-javoblar. — Namangan: Namangan, 2016. — 60–61-b.
3. Yoqubov O. Ulug'bek xazinasi. — Toshkent: Ilim-ziyo-zakovat, 2019. — 368 b.
4. Yoqubov O. Ko'hna dunyo. — Toshkent: Yangi asr avlodi, 2018. — 432 b.
5. Mirziyoyev Sh. M. O'zbekiston Respublikasi davlat mustaqilligining o'ttiz to'rt yilligiga bag'ishlangan tantanali marosimdagi nutq. — 2025-yil 29-avgust. https://www.president uz
6. Mirziyoyev Sh. M. O'zbekiston Respublikasi davlat mustaqilligining o'ttiz ikki yilligiga bag'ishlangan tantanali marosimdagi nutq. — 2023-yil 31-avgust. https://president.uz/oz/lists/view/6637
7. Nasirov A. "Odil Yoqubovning 'Ulug'bek xazinasi' romanida badiiy obraz yaratish". Uluslararası Türk Lehçe Araştırmaları Dergisi (TÜRKLAD), 2020, 4-jild, 2-son. https://dergipark.org

[7] Mirziyoyev Shavkat Miromonovich. "O'zbekiston Respublikasi davlat mustaqilligining o'ttiz ikki yilligiga bag'ishlangan tantanali marosimdagi nutq". – 31-avgust 2023-yil. O'zbekiston Respublikasining rasmiy veb-sayti. https://president uz

© Ushbu material Creative Commons Attribution 4.0 International (CC BY 4.0) litsenziyasi asosida tarqatiladi.